

**Talaba-qizlar o‘rtasida “O‘zbekligim-O‘zligim” nodavlat notijorat tashkiloti
tomonidan o‘tkaziladigan “Qizlar ibosi – millat libosi” ko‘rik-tanlovini
o‘tkazish to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta‘lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda – oliy ta‘lim muassasalari deb yuritiladi) tahsil olayotgan talaba-qizlar o‘rtasida ularning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida o‘tkaziladigan **“Qizlar ibosi – millat libosi”** ko‘rik-tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish, o‘tkazish tartibi, arizalarni qabul qilish, baholash mezonlari hamda g‘oliblarni taqdirlashni belgilaydi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2.1. Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash, qizlarda milliy qadriyatlarga nisbatan mehr uyg‘otish, milliy libosda kiyinish bo‘yicha tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish, ommaviy madaniyatga berilib, turli millat kiyimlariga taqlid qilishlarining oldini olish.

2.2. Ularni oilaviy hayotga tayyorlashda pazandalik sirlari, orastalik, halollik tamoyillari, oilaga jamiyat poydevori sifatida qarashlarini shakllantirish.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar o‘rtasida milliy kontentni ko‘paytirish haqidagi vazifalari ijrosini ta‘minlash, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5ta muhim tashabbusni amalga oshirish.

III. Tanlovni tashkil etish

3.1. Tanlov “O‘zbekligim-O‘zligim” NNT tomonidan tashkil etiladi, o‘tkaziladi hamda g‘oliblari aniqlanadi.

3.2. Tanlovning targ‘ibot hamkori Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Vazirlik).

3.3. Tanlovda oliy ta‘lim muassasalarining barcha talaba-qizlari ishtirok etadi.

3.4. Tanlov to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, tanlov qoidalari va shartlari, ro‘yxatdan o‘tish shartlari, tanlovda qatnashish uchun ariza berish to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

3.5. Tashkilotchilar tanlov qoidalarini o‘z ixtiyori bilan bir tomonlama o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va ushbu o‘zgartirishlar Vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilish orqali amalga oshiriladi. O‘zgarishlar Vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

3.6. Tanlov 2ta bosqichda tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

IV. Tanlov shartlari

4.1. Tanlovning quyidagi **ikki** bosqichda o‘tkaziladi:

4.1.1. Birinchi bosqichda unda ishtirokchilar bugungi zamonga mos milliy, zamonaviy, yoshlarga xos milliy libos obrazida 1 daqiqali qisqa video tayyorlab, Instagramdagi @uzbekligim_ va @eduuzofficial sahifalarini belgilagan holda o‘z sahifasiga joylashtirishi hamda eng ko‘p “layk” va ko‘rishlar yig‘ishi kerak. Video materiallar 25-noyabrdan 15-dekabrgacha qabul qilinadi va eng munosib 15 nafar nomzod tanlovda bellashish uchun, komissiya a’zolari tomonidan tanlab olinadi.

4.1.2. Tanlovning ikkinchi bosqichiga saralab olingan talaba-qizlar ishtirokida musobaqa tashkil etiladi. Bunda saralab olingan tanlov ishtirokchilari quyidagi shartlarda bellashadilar:

- O‘zini tanishtirish. Milliy liboslarga munosabatini namoyish etish. O‘z videoroligiga izoh berish;
- Milliy urf-odatlar bo‘yicha viktorina savol-javoblarida ishtirok etish;
- O‘zbek milliy taomi – chuchvarani tugish bo‘yicha mahoratini namoyish etish;
- Erkin mavzu (o‘zbek tilida she‘r, qo‘shiq, raqs, sahna ko‘rinishi bo‘lishi mumkin).

4.2. Tanlov boshlashdan oldin qur’a asosida ishtirokchilar tartibi aniqlanadi. Tayyorgarlik ko‘rish uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

V. Tanlovni baholash tartibi

5.1. Tanlov ishchi ishchi guruhi 5 kun ichida (20-dekabrga qadar) nomzodlarning videorilzlari bilan tanishib chiqib, nomzodlarni quyidagi mezonlar asosida saralab oladi:

T/r	Baholash mezonlari	Ballgacha
1.	Video materiallarda tanlov mazmun-mohiyatini to‘laqonli ochib berilganligi, kreativ nuqtayi nazardan aks etganlik darajasi	25 ballgacha
2.	Ishtirokchining dunyoqarashi, fikrlash doirasi va e’tiborni jalb qila olishi	25 ballgacha
3.	Ishtirokchi libosining jozibadorligi, zamonaviyligi milliy an’analariga sodiqligi	25 ballgacha
4.	Ishtirokchi videosining Instagramdagi “layk”lar soni	25 ballgacha
	Jami:	100

Instagramda aholining bosgan “layk”lar soniga ko‘ra ishtirokchilarga quyidagicha ballar taqdim etiladi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Ovoz berish jarayonlarida 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan ishtirokchiga	25 ball
2.	Ovoz berish jarayonlarida 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan ishtirokchiga	20 ball
3.	Ovoz berish jarayonlarida 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan ishtirokchiga	15 ball
4.	Ovoz berish jarayonlarida 4-15-o‘rinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchiga	10 ball
5.	Ovoz berish jarayonlarida qolgan o‘rinni qo‘lga kiritgan ishtirokchilarga	5 ball

Tanlovning respublika **bosqichi** Toshkent shahrida o‘tkaziladi (2024-yil dekabr oyining uchinchi 10 kunligi). Bu bosqichda saralab olingan nomzodlar tanlov shartlari asosida bellashadilar.

5.1. Tanlovning final bosqichi o‘tkazilish sanasi va joyi har bir bosqich uchun mas’ul bo‘lgan tegishli tashkiliy ishchi guruh tomonidan ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lon qilinadi.

VI. Tanlov ishtirokchilarini baholash mezonlari

6.1. Tanlovning barcha bosqichida iqtidorli qizlarni baholash 100 balli tizimda belgilanadi. G'oliblarni aniqlashda talaba-qizlarning nazariy va amaliy salohiyatiga, milliy qadriyatlarga oid bilimlari va ijtimoiy tarmoqdagi roliklarining reytingiga alohida e'tibor qaratiladi.

6.2. Tanlov ishtirokchilari maxsus ishlab chiqilgan baholash varaqalari yordamida baholanadi.

6.3. Tanlov hay'atining har bir a'zosi har bir nomzodga o'z bahosini qo'yadi.

VII. Ishchi guruh

7.1 Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida Ishchi guruh shakllantiriladi.

7.2. Tanlovning ishchi guruhiga quyidagi vazifalar yuklatiladi.

- tanlov jarayonida ishtirokchilar orasida sog'lom raqobat va do'stona muhit yaratilishini ta'minlashi;

- Nizomda belgilangan qoidalar bilan tanishib, o'zi ham, boshqa ishtirokchilar ham ularga amal qilishini ta'minlashi;

- tanlovning reglamentini to'g'ri olib borilishini doimiy nazorat qilishi;

- taraflar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lishini oldini olishi va bunday hollar sodir bo'lgan taqdirda, uni odillik bilan hal etishi lozim.

VIII. G'oliblarni taqdirlash

8.1. Tanlov g'oliblarini taqdirlashni tashkil etish maqsadida Ishchi guruh majlisi o'tkaziladi hamda Tanlov natijalari e'lon qilinadi. Tanlov g'oliblari va sovrindorlarining ro'yxati Ishchi guruh tomonidan tasdiqlanadi.

8.4. Tanlovning ikkinchi bosqichida 1-, 2- va 3-o'rin sohiblariga noutbuk, qolgan ishtirokchilarga esdalik sovg'alari "O'zbekligim-O'zligim" NNT tomonidan beriladi.

8.5. Tanlov natijalari va g'oliblarning ro'yxati tantanali taqdirlash marosimidan so'ng, Vazirlik va ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

IX. Yakuniy qoidalar

9.1. Tanlovga davlat va nodavlat tashkilotlar homiylik qilishlari mumkin.

9.2. Tanlovning Nizom talablari asosida ijrosini nazorat qilish ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.